



№ 04/1-4091

2024-yil, 11-dekabr

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti Muhammadiyeva Shohsanam Mansur qizining 10.00.06 – Chog'ishtirma tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan “O'zbek va ingliz flora idiomalarining semantik va pragmatik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasining ilmiy natijalarining amaliyotga joriy etilganligi to'g'risida

MA'LUMOTNOMA

Muhammadiyeva Shohsanam Mansur qizining “O'zbek va ingliz flora idiomalarining semantik va pragmatik xususiyatlari” mavzusidagi 10.00.06 – Chog'ishtirma tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi natijalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan F3-201912258. “O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” amaliy loyihasida foydalanilgan.

Jumladan, ilmiy tadqiqot natijasida dissertatsiyaning tilshunoslik, pragmatik xususiyatlari, flora idiomalarining terminlarining funksional-uslubiy va semantik xususiyatlari birlashtirgan holda sohamizda qo'llanilishi, o'zbek tilida qo'llanayotgan flora komponentiga oid iboralarni aniqlash hamda amalda qo'llash muammolari va yechimlarini o'rganishning yangi metodologiyasiga doir ilmiy qarashlar tahliliga ham murojaat qilingan.

Dissertatsiya orqali dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarga nisbatan noyob namunalar sifatida qaraladi va ularni o'rganish, qiyosiy-chog'ishtirma, tasnifiy, tavsifiy tadqiqotlar olib borish, shu bilan birgalikda, ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalarning semantik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli har bir tildagi idiomalar o'sha xalq yashab turgan muhiti ta'siri hisobiga boyib borishini ochib berish, ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalarini turli xil aspektda o'rganish orqali ushbu ijtimoiy sistemani aks ettiruvchi lisoniy sistema zanjiridagi bir bo'g'in sifatida boshqa sohalar terminologiyasi bilan parallel ravishda taraqqiy etishi va boyitilishida foydalanilgan.

Muhammadiyeva Shohsanam Mansur qizi mazkur loyihada bevosita ishtirok etmagan.
Asos: loyiha rahbari ma'lumotnomasi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti OO'MTVning 16.07.2021-yil 311-sonli buyrug'iga muvofiq tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Rektor



Sh.Sirojiddinov